

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 1
(66490)

2005 yil
3 yanvar - 9 yanvar

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

Sinf rahbarimiz Munira opa Yusupova bizni xuddi na v n i h o l d e k parvarishlaydilar. Natijada sinfimiz iqtidorli sinf sanaladi.

Nigora, Azizbek, Zoirning nomlari maktabimizdagi eng a'lochi o'quvchilar qatorida tilga olinadi. Hammasi yaxshiku-ya, ammo bir lekini bor-da...

qildik. Yig'ilishimizga otalarimizni ham taklif etdik. Birinchi galda hammamiz sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik va gazeta orqali

BIZNI KECHIRING, USTOZ...

Fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlarda-G'oliblikni qo'ldan bermaymiz. Yillar davomida biz ishtirok etmagan tadbir, tantanalar qolmadi, hisob. Sinf doshimiz Shuhrat Sapoyev maktabda «Kamolot» tashkiloti sardori.

Bu yil 9-sinfga o'tib, biroz dangasalashib qoldik. Ochig'i, o'zlashtirishimiz ham pasaydi. Ba'zan maktabga kelmay qoladigan, hatto darslardan ham qochadigan odat chiqardik. Gazeta va jumallarga obunani har yili birinchilardan bo'lib uyushqoqlik bilan yakunlardik. Bu yil esa obuna bo'lish ham yodimizdan ko'tarilib ketibdi. Bu holdan, ayniqsa, ustozimiz qattiq ranjildilar. Ularning yutuqlarimizdan quvonib porlab turuvchi, bizni iliq mehr bilan qarshilaganda doimo kulib turuvchi ko'zlarida qandaydir ma'yuslik mujassam edi. Bir kuni hatto ustozimizning xafa bo'lib yig'laganlarini ham ko'rib qoldik. Shunda barchamiz yig'ilib, bo'layotgan voqealarni tahlil

dunyodagi eng mehribon va eng aziz ustozimizdan kechirim so'ramoq uchun maktub yozdik:

«Hurmatli va aziz ustozimiz Munira opajon! Biroz erkalik qilib, Sizni ranjitib qo'yganimizdan qattiq xijolatdamiz. Qolgan choraklarda faqat a'lo baholarga o'qib, siz orzulagandek bilimli, ma'naviyatli, fidoyi, qat'iyatli, iymonli va kamtar, xalqimiz, Vatanimizga astoydil xizmat qiladigan insonlar bo'lib kamol topishga harakat qilamiz. Siz faxrlanadigan shogirdlar bo'lishga so'z beramiz».

Toshkent shahar,
Mirzo Ulugbek
tumanidagi 27-maktabning
9-sinf o'quvchilari



Zafar, Ruslan, Anvar, Barno, Aziza, Xabibullo rasm chizish, sport va she'riyat bo'yicha viloyat va Respublika tanlovlarining g'oliblari bo'lishgan bo'lsa,

«YANGI AVLOD» DAN UMID

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining ko'rgazmalar zalida «O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi» tashabbusi bilan Respublika bolalar badiiy festivalining saralash bosqichi o'tkazildi.

Bolalar badiiy festivali

Festivalning ochilish marosimi dastlab 28 dekabr kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Milliy cholg'u asboblari jo'rligidagi ijrolar, zamonaviy vokal qo'shiq va raqslar, bolalar chizgan rasmlar ko'rgazmalari «Yangi avlod» ijodkorligiga ijobiy baho bo'ldi.



Hamma g'olib bo'lishni istaydigan festivalda katta konsertga yo'llanma olganlar ham olqish olib, tomoshabinlar nazariga tushganlar ham birdek shod edi. Bu shodlik ta'mini keyingi sonda bo'lishamiz.

Nuriddin HAYDAROV.

PAQILDOQLARNI KIM PAQILLATAYAPTI?

O'lkamizga qish fasli kirib kelishi bilan, ayniqsa, Yangi yil bayrami arafasida ko'cha-kuylarda paqildoqlarning paqillagan ovozlari tez-tez quloqqa chalina boshlaydi. Bu asabbuzar paqildoqlarning zarari ko'pchilikka ma'lum. Bexosdan eshitilgan bu kuchli ovoz keksalarga, bemorlarga yomon ta'sir qiladi. Aslida qo'shni davlatlarda tayyorlanadigan bunday «perotexnik» vositalarni mamlakatimizga olib kirish va sotish taqiqlangan. Lekin ayrim o'z manfaatining o'ylaydigan soxta tadbirkorlar ularni yashirin yo'llar bilan olib kelib sotishadi.

Bolalar esa, kattalar ming nasihat qilishsin, o'rtoqlariga qiziqib bunday

vositalardan sotib oladi. Uning qo'qqisidan yangragan ovozi odamlarni cho'chitib yuborsa mayli-ku-ya, o'zining salomatligiga ham ziyon yetkazadi. Yong'in xavfsizligi xizmatidagi ma'lumotlarga ko'ra, bunday vositalarni o'ynash oqibatida bu yil ellik nafarga yaqin bola turli darajadagi jarohatlar olgan. Masalan, Toshkent shahrida yashaydigan Yu.Karimning qo'lida paqildoq portlab ketib, bir ko'zi ko'rib bo'lib qolgan. Qashqadaryolik maktab o'quvchisi paqildoq va «salyut»ni ota-onasidan yashirincha pichan g'aramining orqasida yashirib, otib uyga o't tushirib yuborgan.

Ana shunday ko'ngilsiz voqealar bo'lmasligi uchun bolajonlar paqildoqlar sotayotganlarni ichki ishlar idoralari xodimlariga aytib berishlari kerak. Shu tariqa hayotimiz mazmunli, umrimiz tinch va xotirjam kechardi.

Azizjon YO'LDOSHEV,

Yong'in xavfsizligi bo'limi I-XYOX alohida post boshlig'i, katta leytenant.



Bir odatim bor: sharbat ichamanmi, konfet yeimanmi, saqich chaynaymanmi, albatta nimanidir o'qib o'tiraman. Bir kuni

deyilibdi. Oziq-ovqat deb yozilishini nahot ular bilmasa?!

Yana bir «Drujba» konfetida shunga o'xshash ko'p xatolarni

«QOVURILGAN YER YONG'OQ» QANDAY YOZILADI?

«Maymoq ayiq», «Drujba» uchratdim. Avvaliga konfetdagi konfetlarini yedim-da, qog'ozini yozuvlar to'g'riday ko'rindi. Lekin o'qiy boshladim: qog'ozini biram chiroyli, rangli, hoshiyalari kashtali. «qovurilgan yong'oq»dan keyin yana «yong'oq» deb yozilgan. Shu Undagi yozuvlarni o'qib, hayron yong'oqlardan biri «yer yong'oq» qoldim. Konfet, shokolad qog'ozlari bo'lsa kerak. «Drujba» konfetida chiroyidan zavqlanib yuraveribmiz. «energetik qiymati», «kakao qirindisi» deb yozilgan so'zlariga Qog'ozdagi xatolarga esa uni yeb tushunmadim. Konfet firmasining bo'lib e'tibor beribmiz.

Konfetning nomi «Maymoq nomi «Zebiniso ona» ekan. Negadir ayiq», lekin u «Maymok ayiq» deb uni «Zebiniso - ona» deb yozishibdi. xato yozilgan. Mana shu «Maymoq Qaysi biri to'g'ri ekan? Ustoz ayiq» tarkibida «shahar» (shakar o'rgatganlarimi yoki qog'ozda bo'lsa kerak) borligidan hayron yozilganlarimi? Shunga hayronman. Yangi yilda nafaqat deb yozilibdi. Aslida «Qovurilgan yer hayotimizda, balki yozma yong'oq» deb yozilmaydimi? Moy manbalarimizda ham hato zarralari boshqa-yu, «qandolat moyi» bo'lmasin... boshqami? «Ozoq-ovqat qiymati»

Mehriniso ABDUG'AFUROVA,

Toshkent shahridagi 131-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi.

-Baxtli bolalikning har lahzasini g'animat. O'tayotgan 2004 yil har bir bola uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bo'lib o'tgan eng yaxshi voqealar bolalar yodida muhrlanib qolishi tabiiy. Mazkur yilda eslashga arzigulik ishlarining bir qismi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining homiylikdagi bolalar tashkiloti bilan bog'liq. 2004 yil mazkur tashkilot uchun qanday yil bo'ldi? Biz ana shu harakatning Toshkent viloyati bolalar tashkiloti misolida so'z yuritmoqchimiz. 2004 yil «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan tashkilotning Mehrshafqat, G'amxo'rlik yo'nalishlaridagi klublar faoliyati ancha jonlantirildi, deydi biz bilan suhbatda bolalar tashkiloti raisi Barno Jabborova. -Viloyatimizda istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan, qarovchisini

Bugungi bolalar kompyuterlarga juda qiziqishadi. Ammo o'rganish uchun hamma imkoniyat bir xil emas. Biz tarbiyalanuvchilarning 25



nafarini kompyuter kurslariga o'qitdik. -Biz bolalarning madaniy dam olishlariga ham alohida ahamiyat qaratganmiz. Jumladan, poytaxtda va shahrimiz markazida bo'lib o'tadigan bir qancha musiqiy dasturlar tomoshasi olib borishni yo'lga qo'yganmiz.

musobaqa va turnirlar sonini oshirishga keng e'tibor berib kelinmoqda. Toshkent viloyatida amalga oshirilgan ishlar xususida

Harakatning viloyat kengashi harbiy vatanparvarlik va sport bo'limi mudiri Mirzohid Komilov shunday deydi:

-Biz bu yilda mazkur sohada ko'plab ishlarni amalga oshirdik. Oddiygina misol, Ohangaron shahridagi 3-umumta'lim maktabi binosida faoliyat ko'rsatib kelgan boks klubining yopilishiga bir muddat qolganda, biz o'z yordamimizni ko'rsatdik. Sport inventarlarining yetishmay qolishi va boshqa sabablar tufayli yopilish arafasida turgan

QORBOBONING SOVG'ASI

(Kichik hikoya)

Farangizga bugun ham hech kim ertak aytib bermadi. U qog'oz - qalamni oldi-da, Qorboboga xat yozishga tushdi. Axir hademay Yangi yil kirib keladi. Qiziq, unga bu gal Qorbobo nima sovg'a olib kelar ekan?

-Oyijon, kasalxonaga borib kelaylik, buvimni juda-juda sog'indim.

Oyisi indamadi. Chunki Gulsara aya mana bir oydan buyon qattiq betoblar. Erta tongdan qo'ng'iroq jiringladi. Farangizning oyisi go'shakni ko'tardi. -Gulsara aya og'ir bo'lib qoldilar, tezroq keling, -dedi hamshira.

-Oyijon, qayerga ketayapsiz?

-Shifoxonaga, ona qizim, sen uyda o'tirib tur, men hozir kelaman... Onasi shoshib chiqib ketdi.

Farangiz bugun barvaqt o'rnidan turib, shoshib yostig'ini ostiga qaradi. Yaltiroq yupqa qog'ozga o'ralgan «ertaklar kitobi». -Voy, nahot Qorbobo olib kelgan bo'lsa, endi buvijonim kasalxonadan chiqsalar o'zim ularga o'qib beraman, -dedi u mamnun, lekin uning eng katta tilagi hali amalga oshmagan edi. Derazadan hovli tomon qaradi. Oppoq qor borliqni yanada chiroyli qilib ko'rsatmoqda. Farangizning chehrasi birdan yorishib ketdi.

-Buvijon, siz keldingizmi? Buvijon! Hovli tomon yugurib chiqib ketdi. Gulsara aya ancha o'zlariga kelib qolibdilar shekilli, shifokorlar uyga ruxsat berishibdi.

-Buvijon, endi hech ham ketmaysizmi? Men sizni sira xafa qilmayman.

Farangiz buvisini mahkam quchib oldi va samolarga tikilib: -Qorbobojon, rahmat senga! Rahmat! - deb mamnun kulib qo'ydi.

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU talabasi.



mavzusidagi ko'rik-tanlovni viloyatda juda chiroyli tashkil qilindi.

«KAMALAK» - BIZNING TASHKILOT

yo'qotgan oila farzandlari, nogironlar, yolg'iz keksalar holidan xabar olishni yo'lga qo'ydik.

Hozirgi kunda viloyatda 2 ta mehribonlik uyi, 12 ta maktab internatlari mavjud bo'lib, bu yerda tarbiyalanayotgan bolalar ham alohida mehrga muhtoj. Shu munosabat bilan barcha tuman va shahar bolalar tashkilotlari raislari yordamida ana shu joylarga tashrif buyurib, ular uchun dasturlar namoyish qilindi. Chirchiq shahrida joylashgan 14-sonli mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan har bir bola faollar diqqatida turadi.

Bolalarning qiziqishidan tortib, intilishlarigacha e'tiborda. Ularning ko'ngli o'ksik, qalbi kemtik. Biz ularga ko'proq e'tibor qaratishga harakat qilamiz. Biz mazkur



yilda ana shu erda tarbiyalanayotgan bolalar uchun «Mehrjon - 2004» tadbirini chiroyli tashkil etdik va dastur yakunida bolajonlarning 10 nafariga oyoq kiyimlar olib berdik. Ular uchun bir necha marta bayram dasturxonlari yozildi.

Bolaning qo'llab-quvvatlanishi uning iste'dodi va iqtidorini namoyish etib, kimdandir olqish olinishi bilan ham bevosita bog'liq. Shu maqsadda bir qancha tadbirlarga ularni jalb etdik. Bir qancha kollejlar va 14-sonli bolalar kutubxonasi hamkorligida tashkil etilgan «Balli qizlar!» ko'rik-tanlovida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'z iste'dodlarini namoyish qildilar. Bu ham ular iqtidorining qo'llab-quvvatlashning yorqin namunasidir, -deydi Chirchiq shahar bolalar tashkiloti raisi.

Bolalar sportini rivojlantirish masalasiga bu yil

boks klubi uchun boks qoplari, qo'lqop va sport anjomlari berildi. Ya'ni, bolajonlarimizning sport bilan shug'ullanishlariga yana imkoniyat yaratdik. Biz, shuningdek, mahalla bolalarining unumli dam olishlarini tashkillashtirish maqsadida Harakatning Oqqo'rg'on tuman Kengashi va tuman hokimligi bilan hamkorlikda barpo etilgan «Mustaqillik» mahallasidagi sport maydonchasi uchun 9 turdagi sport anjomlari olib berildi. Bunday xayriyalar viloyatimizning barcha tumanlarida amalga oshirib

kelinmoqda.

Maqsad, bolalarning bo'sh

vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning sog'lom bo'lib voyaga yetishlariga ko'maklashishdir. Iqtidorli, iste'dodli bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Viloyat Kengashi bir qancha

ko'rik-tanlovlarni tashkil etib kelmoqda. «Iste'dod-2004» ko'rik-tanlovi bu yil barcha shahar va tumanlarda ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Eng iqtidorlilar aniqlandi. Bu ham ular uchun juda katta yordam. Yana bir ijobiy tomoni - bu yil «Misr yoshlar nigohida»

Bolalarning qiziqishlari ortdi. Eng quvonarlisi, quyichirchiqlik tengdoshimiz Nastya Alekseenko ana shu ko'rik-tanlovning «Mustaqillik-eng oliy ne'mat» mavzusidagi ko'rik-tanlov



yuqori saviyada tashkillashtirildi.

Iqtidorli yoshlarning ijodi doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Yana bir quvonadigan jihati - Bolalar tashkiloti har bir sinfga kirib borishda birinchi navbatda tuman, maktab va sinf sardorlariga tayanadi. Biz shuning uchun ham ularni o'qitishga, bilim saviyasini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Ular uchun o'quv mashg'ulotlari tashkil etib, asosiy qilish lozim bo'lgan

dolzarb ishlarni muntazam tushuntirib boryapmiz, -deydi viloyat Kengashi etakchi mutaxassisi Zebo Kunisheva. -Biz Toshkent viloyati Bolalar tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan ayrim

ishlarga nazar soldik, xolos. Vaholanki, bunday ishlar viloyat miqyosida har bir tuman, har bir maktabda «O'z huquqingizni bilasizmi?», «Siz «Kamalak» tashkilotini bilasizmi?» kabi tanlovlar bolalar uchun katta bilim berib kelmoqda. O'ylaymizki, Yangi yilda ham bu ezgu ishlar davom etadi.

Amrullo KARIM,
maqola «Kamolot» YOIH Toshkent viloyati bo'limi Kengashi Matbuot xizmati bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Aziz bolajonlar, yangi, 2005 yilimizning yurtboshimiz tashabbusi bilan «Sihat-salomatlik yili» deb e'lon qilinganidan xabaringiz bor. Bu ramziy nomning tagida bir olam ma'no, mazmun, ezgu-niyat mujassam ekanligini ham bilasizmi? Yurtboshimiz bizga salomatlik eng oliy ne'mat ekanligini, sog'ligimiz haqida eng avvalo o'zimiz qayg'urishimiz lozimligini yana bir bor eslatib qo'ymoqchilar. Bir so'z bilan aytganda, ular har birimizni sog'lom ko'rish orzusidalar. Shuningdek, Siz bolajonlarni ham. Ayniqsa, bugungi qizaloqlar - ertangi bo'lajak onalarni. Shularni inobatga olgan holda gazetamiz sahifalarida «Qizlarjon» nomli yangi rukn tashkil qilishga qaror qildik. Unda qiz bolalarning salomatligi, yurish-turishi, axloq-odobi, muammolari, quvonch va tashvishlari, qo'yingchi, faqat qizlar haqida so'z boradi.

O'qing, bahs va munozaraga kirishing, o'z fikr va mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.

DUGONALAR DAVRASI

BAJARILMAGAN SHART

Yangi yil bayrami shodiyonalari hali qalblarni tark etmagan ushbu kunlarda mening xayolimdan bir ko'ngilsiz voqea sira nari ketmayapti.

O'tgan yili bayram arafasida dugonalarim bilan kinoga tushgandik. Kirib ketayotganimizda qordan darak yo'q edi. Qaytib chiqsak, hammayoq oppoq qor. Zavqimiz kelib, qorbo'ron o'ynay ketdik. O'yinga shunchalar berilib ketganimdan, dugonam Zulfiya cho'ntagimga qorxat solib qo'ygani sezmay ham qolibman.

«Dugonam Dilorom, seni birinchi qor bilan tabriklayman. Shartim shu! Yangi yil kechasi menga albatta qo'ng'iroq qilgin, miriqib gaplashamiz», deyilgan edi qorxatda.

Ko'z ochib yumguncha Yangi yil ham kirib keldi.

Dugonamning shartini eslab, darhol unga qo'ng'iroq qildim. Lekin... dugonam bilan gaplasha olmadim. U tunda avtohalokatga uchrab, halok bo'lgan ekan. Afsuski, qorxatning shartini Zulfiyaning o'zi bajarolmadi...

Umida QOSIMOVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 97 - maktab o'quvchisi.



KO'RGAN KO'ZLAR QUVONSIN...

Go'zal va lozar dugonajonlarim, men sizlarga hayotingiz davomida asqotib qolishi mumkin bo'lgan o'zinning ayrim maslahatlarimni bermoqchiman. Har doim orasta yuring, gavgangizga mos, ixcham, chiroyli kiyinishga harakat qiling. Rusumning ortidan quvmang.



Agar yangi kiyimingiz bo'lmasa, xafa bo'lmang. Eski kiyimlaringizni ham tozalab yuvib, chiroyli qilib kiyib yursangiz bo'ladi. Eng muhimi, sochlaringizni chiroyli tarab, turmaklab yurishga odatlaning. Toki sizni ko'rgan insonlarning orasta-yu go'zalligingizdan ko'zlari quvonsin. Odamlar bilan xushmuomala bo'ling. Har kimning fe'l-atvoriga qarab, uning qalbiga yo'l topishga intiling. Maktabda, do'stlaringiz davrasida biroz sho'xlik ham qilib turing-u, lekin me'yorida oshirib yubormang. Qiz bola ekanligingizni hamisha yodda tuting. Unchalik ham uyatchan, tortinchoq bo'lmang. Bilganlaringizni dadil aytishga, haqiqatning yuziga tik qarashga o'rganing.

O'zingizning eng katta orzuingizni aniqlab oling va shu maqsadga erishish uchun intilib yashang. Bu yo'lda uchraydigan qiyinchilik va to'siqlardan aslo cho'chimang. Bu ish qo'limdan kelmaydi, boshqa osonrog'ini qila qolay, desangiz, yodingizda bo'lsin, hech bir orzuingizga etisha olmaysiz.

INOYATXON,

Poytaxtdagi 162 - maktabning 8 - «V» sinf o'quvchisi.

ORZULARIM JUDA MO'L...

Ammo biroz dangasaroqman-da. Televizor ko'rishni, derazaga termulib xayol surishni yoqtiraman. Nimalarni xayol qilasan, deysizmi? Eh, men aytmay, siz eshitmang. Juda ko'p narsalarni orzu qilaman. Yaxshi o'qishni, doim birinchilardan bo'lishni istayman. Maktabni a'lo baholarga tugatib, universitetga kirib o'qishni va u erda o'z shahzodamni uchratishni niyat qilaman. O'qishni tugatgach, yaxshi ishlab odamlarga foydasi tegadigan inson bo'lsam deyman. Eng katta orzularimdan yana biri - Londonda yashash...

Ba'zan o'ylab qolaman: bunday dangasalik qilib yuraverishimda o'ylagan niyatlarimga etarmikanman, deb Siz nima deysiz, dugonajonlar?

Nasiba VAISOVA,

Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi

6 - son gimnaziyaning 9 - «V» sinf o'quvchisi.



BU HAVASMI YO HASAD?

Oilada uchinchi farzandman. Uch o'g'ildan keyin tug'ilganim uchunmi, biroz erkalatib o'stirishgan. Uy yumushlarini, hatto qizlar bajaradigan ishlarni ham asosan akalarim qilishardi. Bu yildan akalarim ancha ulg'ayib qolishdimi, qiz bolalarning ishini qilmaymiz, deya xarxasha qilishyapti. Tunov kuni Erkin akamning ko'cha supurayotganlarini sinfdosh qizlari ko'rib qolib, rosa mayna qilishibdi. Shunda oyim meni yonlariga chaqirib, endi katta qiz bo'lib qolding, uy ishlariga o'zing qarashgin, dedilar. Qilgan yordaming menga foyda bo'lsa, o'rganganing o'zingga foyda, deydilar doim. Ana, qo'shnimizning qizi Dilnozani qaragin, hamma ishni qiladi. Hatto ovqatlar pishirishni ham o'rganib olibdi, deya dugonamni maqtay ketadilar. Akalarimning og'zida ham shu gap: Dilnozaning ham akalari bor. Shunday bo'lsa-da, hamma ishni o'zi qiladi. Pishirgan shirinliklarini akalari mazza qilib eb yurishadi. Sen bo'lsang...



Dilnoza bilan sinfdoshimiz. Maktabda ham, mahallada ham doimo birgamiz. U mening eng yaqin dugonam, sirdoshim desam ham bo'ladi. Uni juda yaxshi ko'rardim. Onam va akalarimning maqtovlari sabab dugonamni yomon ko'rib qoldim. Lekin bir tomondan ich-ichimdan unga o'xshagim ham keladi. Bu havasmi yoki hasad ekanligini anglolmayapman.

Sayyora SHOKIROVA,

*Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani,
S.Segizboyev jamoa xo'jaligi.*

UCHRASHUV

Yaqinda maktabimizga ayollar shifokori keldi. Sinfda faqat qizlarnigina qoldirib, biz bilan uzoq suhbatlashdi. Suhbatimiz mavzusi qiz bolaning gigiyenasi haqida bordi. Ular bizga har kuni yuvib, tishlarimizni yuvib, ich kiyimlarimizni almashtirib yurishimiz lozimligi, bu narsalar bizning salomatligimiz uchun juda muhimligi haqida gapirdilar. Hatto onalarimizga ham ayta olmaydigan ayrim savollarimizga javob oldik. Yana hozirgi paytda ko'plab uchrayotgan buqoq xastaligi haqida ham to'liq ma'lumot oldik.

Hatto bepustlikka ham olib kelishi mumkin bo'lgan bu xastalik, ayniqsa, qiz bolalar uchun juda xavfli ekan. Bu gaplarni eshitgan onalarimiz ertasigayoq bizlarni shifokorga olib borishga, buqog'imiz bor-yo'qligini tekshirtirishga ahd qilishdi. Shifokor opamiz yana bizga bir hayotiy voqeani ham so'zlab berdilar. Ularning mahallasida o'zi ham, axloq odobi ham chiroyli qiz bor ekan. U qiz yaxshigina tikuvchi va pazanda ham ekan. Sovchilari ham juda ko'p ekan.

Bir kuni o'sha qizning to'yi bo'larmish degan gap tarqalibdi. Qayday baxtli ayol kelin qilayotgan ekan-a bu qizni, deya havas qilishibdi qo'ni-qo'shnilar. Lekin oradan hech fursat o'tmay yana bir xunuk gap tarqalibdi... O'sha qizning fотиhasi buzilganmish. Sababini keyinroq bildik. Haligi qizning bo'lajak qaynonasi u bilan ko'rishayotganda undan ter hidi anqib turganmish.

-Bu voqeani sizlarga bejiz so'zlab berganim yo'q. Qiz bolalar o'smirlik davridanoq gigiyena qoidalari rioya qilishi, toza va ozoda kiyinishi, kiyim javonini batartib saqlashga odatlanishi lozim, dedilar suhbat yakunida.

Aziz dugonalarim, bunday uchrashuvlar sizning maktabingizda ham bo'lib turadimi? Bo'lsa, o'rganganlaringizni biz bilan o'rtoqlashasiz, degan umiddamiz.

NOILA, DILNOZA, SHOHIDA,

Toshkent shahri.

KARATECHINING UNVONI QACHON OSHADI?

Kelajak umidlari

Yurtimizda karate - eng ommalashgan sport turidir. Mamlakatimizning barcha hududlarida ming-minglab bolalar karate bilan shug'ullanishadi. O'zlari a'zo bo'lgan klub va tug'ilgan viloyati sha'nini sharaflab, xalqaro maydonlarga mardona chiqishmoqda. Shoda-shoda medallar sohiblarini vaqtli matbuotda o'qib, oynayi-jahon orqali ko'rib, radioeshittirishlar orqali eshitarkanmiz, istiqbol bergan imkonlardan quvonamiz. O'zbekiston Karate Milliy federatsiyasi rahbariyati va xodimlarining fidoiy mehnatlariga tahsinlar aytamiz. O'zbekiston Karate Milliy federatsiyasi prezidenti Nurxon Nafasovni chin ma'noda yosh karatechilarimizning otasi deymiz. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ustoz, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan qora belbog', 6-DAN sohibi Nurxon NAFASOVdan qachon O'zbekiston Karate Milliy federatsiyasi tashkil etilgan, deb so'radik.

- Federatsiyamiz 1996 yil 26-sentabrda tashkil topdi va Adliya vazirligida ro'yxatga olindi. Bizga O'zbek karatesini rivojlantirish va keng miqyosdagi xalqaro musobaqalarda O'zbekiston nomidan ishtirok etish xuquqlari berildi, -deb javob berdi ustoz lo'nda qilib.

- Karate Milliy federatsiyasi o'zining bosh homiylar qatoriga qaysi korxonalar tashkilotlarni qo'sha oladi?

- Karatening rivojlanishi uchun bir-ikita homiyni magi kamlilik qiladi. Agar biror sport turiga davlat e'tibori bo'lmas ekan, ushbu sport turining hech qachon kelajagi bo'lmaydi. Biz davlatimiz tomonidan berilgan e'tibor tufayli dadil faoliyatni boshladik. Tez fursatda yirik tashkilotlar - Osiyo va Jahon karate federatsiyalariga a'zo bo'ldik. Nafaqat a'zo, balki ushbu tashkilotlarning saylov va anjumanlarida teng xuquqli, birovdan kam bo'lmagan holda ishtirok eta boshladik.

- Tabiiyki, mamlakatimizdagi yangi sport turini rivojlantirish uchun malakali murabbiylar kerak bo'lardi. Bu borada mutaxassislar masalasi qanday hal etildi?

- Karatesi rivojlangan davlatlar - Yaponiya, Eron, Turkiya, Rossiya kabi davlatlardan ko'pgina mutaxassislar yurtimizga tashrif buyurib, faoliyat yuritdilar. Murabbiylarimiz malakasini oshirish uchun o'quv-mashg'ulotlar, seminarlar o'tkazishdi.

- Umuman, karate O'zbekistonda necha yillik tarixga ega?

- Bu sport turi mamlakatimizga 1970 yillarning oxirlarida xorijdan kelib o'qiydigan talabalar tomonidan kirib kelgan. 1980 yillarda esa karate sport turi yopilishiga to'g'ri keldi. Ammo shunga qaramay, karate fidoiylari o'z mashg'ulotlarini yashirin tarzda olib bor-

dilar. 1991 yil O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, karate yana rivojlana boshladi.

- Xalqaro maydonlardagi dastlabki g'alabamizga qachon erishganmiz?

- 1996 yil Karate federatsiyasi tashkil etilgandan keyin Jahon chempionati va Xalqaro turnirga qatnashishlar boshlandi. 1997 yilda Turkiyada bo'lib o'tgan xalqaro turnirda sportchilarimiz 2 ta bronza medalini qo'lga kiritishgandi.

- Hozirgi kunda bu medallar son-sanoqsiz oltin, kumush va bronzalarni tashkil etadi. Yosh-yosh bolalarimiz, o'smirlarimizning xalqaro musobaqalardan dadil va g'olibona qaytishayotgani quvonarli. Nazarimda katalar karatesidan ko'ra bolalar va o'smirlarga ko'proq e'tibor qaratilyapti. Shunga to'xtalib o'tsangiz...

- Albatta, biz federatsiya tashkil topgan kundan boshlab bor e'tiborni bolalarga qaratdik. Barcha malakali murabbiylarimiz ular bilan ishladi, xalqaro musobaqalarda bolalar borishdi. Bolalarni xalqaro maydonlarga olib chiqishimizdan maqsad, ularning «ko'zi ochiladi».

Dunyodagi karatesi rivojlangan davlatlar vakillaridan o'rganadi, eng muhimi, Vatan tuyg'usini sezgan holda yildan-yilga kuchli sportchi bo'lib shakllanib boradi. Mana, o'sha dastlabki federatsiya tuzilgan yillarda saboq olishni boshlagan bolalardan Otobek Qosimov, Ilhom Karimov, Sofiya Kaspulatova, Doniyor Sidiqov, Behro'z Xalilov kabi karatechilar bunda yurtdoshlarimizga yaxshi tanish.

- O'z o'rnida o'zbek karatesiga hissa qo'shayotgan fidoiy murabbiylarni sanab o'tsangiz...

- Barcha murabbiylarimiz fidoiy. Ushbu sport turiga fidoiy bo'lishmasdi. Masalan, Temur Muhammedov, Adisher Sodiqov, Aleksandr Popov, Odil Norxo'jayevni ta'kidlab o'tishim mumkin.

- Yurtimizning chekka viloyatlarida karatening ahvoli qanday?

- Barcha viloyatlarimizda karate to'garaklari ishlab turibdi. 2003 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, 60 mingdan ziyod yoshlar ushbu sport turi bilan mashg'ul. Murabbiylarimiz etarli. O'zbekiston terma jamoasining 30-40 foizini viloyat sportchilari tashkil etadi.

- Murabbiylar qanday o'quv qo'llanmalardan foydalanib, o'z malakalarini oshirishadi?

- Yuqorida aytganimdek, yurtimizga turli


mamlakatlardan etakchi mutaxassislar kelib, murabbiylarimiz uchun o'quv-mashg'ulot seminarlarini o'tkazib turishadi. Mana, yaqinda, Ispaniyadan Anton Oliva va shotlandiyalik Tommi Moris Vatanimizga tashrif buyurishadi. Shuningdek, XXI asrning so'nggi karate video qo'llanmalari, kitoblari bizda bor. Qolaversa, biz qatnashgan xalqaro musobaqalarning videoyozuvlarni tahlil qilib, xulosalarni chiqaramiz.

- O'zbekiston karate bo'yicha jahon va Osiyo miqyosida nechanchi o'rinda?

- Reytingimiz bo'yicha Osiyoda kuchli beshlikdan, 172 ta davlat a'zo bo'lgan Jahon karate federatsiyasida yuqori yigirmalikdan o'rin olganmiz. Biz bu natijalarni ko'tarishga, yurtimiz nufuzini yanada oshirishga harakat qilamiz.

- 2004 yil yakunlari bo'yicha sarhisoblardan ko'ngingiz to'ldimi?

- Biz yil davomida O'zbekiston chempionati, mamlakat kubogi, Marka-



Maqsadimiz bolalarni xalqaro maydonlarda toblash. O'zbek karatesi dovrug'ini dunyoga yoyish. Ya'ni, asosiy maqsadimiz - bolalarni xalqaro maydonlarda toblash. O'zbek karatesi dovrug'ini dunyoga yoyish.

- Xalqaro musobaqalarga borish-kelish masalalari qanday hal qilinadi?

- Biz Osiyo va Jahon Karate federatsiyalari taqvim-rejasidan o'rin olgan musobaqalarda ishtirok etishga haqlimiz va ularga imkon qadar borishga harakat qilamiz. Borish-kelish masalalarida asosan davlatimiz e'tibori, O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi ko'magiga suyanamiz. Ba'zida homiylar, shuningdek, fidoiy ota-onalar ham bolalarining borish-kelishiga yordam berishadi. Ularning barcha-barchasiga federatsiyamiz xodimlari tomonidan o'zbek karatesi rivojiga qo'shayotgan hissasi uchun minnatdorchilik bildiraman.

- Farzandlaringizning karatega munosabati qanday?

- O'g'lim Jahonshoh 10 yoshda, karate va gimnastika to'garaklarida ishtirok etyapti. Hozircha natijalar yo'q. Ikki-uchta musobaqalarda ishtirok etdi, yutqazyapti. Ammo men bundan ranjimayman. Qachon zo'r bo'lsa, shunda yutadi.

- Karatechilarimiz qanday firma liboslaridan foydalanishyapti?

- Mashg'ulotlarni oddiy liboslarda, xalqaro musobaqalarni esa Yaponiyaning «Takayda», «Xirota» va «Adidas» firmalarida tikilgan kiyimlarda o'tkazishadi.

- Bolajonlarga karate atamalarikata, kumite, belbog'lar, va DANlar haqida qisqacha ma'lumot bersangiz...

- Kata karate sport turining uch bo'limidan iborat bo'lib unda faqat kompleks mashqlar qo'llaniladi. Kata bajarayotgan sportchi tasavvuridagi 2 yoki undan ortiq bo'lgan raqiblar bilanang olib boradi. Kumiteda esa ikki kishi qo'l va oyoqlari yordamida bir-biriga zarb beradi. Kata va kumiteda ham yakka ham jamoa tartibidagi bahslar mavjud. Belbog'larga kelsak, ular sariq, qizil, yashil, ko'k, malla va qora bo'ladi. Karatechi qora belboqqa erishgach, sport ustasi sanaladi va natijalarining o'sishiga qarab, uning unvoni, ya'ni DANi oshib boraveradi. Fursatdan foydalanib, butun o'zbek xalqini kirib kelgan 2005 yil bilan tabriklayman. Yangi yil yurtimiz ravnaqiga ravnaq, xalqimizga sixat-salamatlik olib kelsin. Yangi yildagi rejalarimiz haqida gapirsam, xalqaro musobaqalarda Yurtimiz sharafini munosib himoya qilish va hech kimdan kam emasligimizni dunyoga yoyishdan iboratdir!

Akmal ABDIYEV suhbatlashdi.



QO'G'IRCHOQLAR SAFARI

Sarlavhani o'qib hayratingiz ortdimi? Qayoqqa ekan-a bu safar? Bu savolga Respublika qo'g'irchoq teatrining bosh rejissori Maryam opa Ashurova oydinlik kiritadilar. *Maryam opangiz 1952 yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Bolaligida Sadridin Ayniy nomli Buxoro teatrida Guli obraziga ishq tushib, o'shandayoq aktrisa bo'lishni orzu qilgan. Bilimli boshga dunyo siqqanidek, Maryam opaning bu qiziqishi ilm eshiklarini asta-asta ochishga yordam bera boshladi. O'zimiz va boshqa shaharlarda san'at oliygohlarini tugatib, endilikda Respublika qo'g'irchoq teatrida bosh rejissor vazifasida ishlab kelmoqdalar. Hozirgacha iste'dodli rejissor 30ga yaqin asarlarini sahnalashtirganlar.*

- 1939 yilda tashkil topgan teatr 1979 yilda Osiyo mamlakatlari bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro qo'g'irchoq festivali sabab yangi binoga ko'chib o'tgan edi. O'shandan beri bolajonlar xizmatida. Bugungi kunda teatrning o'z muzeyi ham bor. Yosh

tomoshabinlar uchun yorug', shinam, ozoda ikkita zali ham mavjud. Teatr jamoasi ikki tilda, ya'ni o'zbek va rus tillarida ijod

ko'ngliga o'rnashsagina ular tilga kiradi. Pokistonu, Misr va Italiyaga borgan qo'g'irchoqlar yaqinda yana P o k i s t o n g a



Teatrdagi juda ko'p va xo'p qo'g'irchoqlarni o'z ustaxonasida yasashadi. Asosan rassom va ustaning mahoratiga bog'liq bu ish aktyorlar

qiladi. borishibdi. «Rafi-pir» teatr studiyasi «Vizual san'at 2004» xalqaro festivaliga taklif etildi. Bu fisteval Lahor shahrida bo'lib o'tibdi. Festivalda dunyoning 29 mamlakatidan

600ga yaqin qo'g'irchoq teatrlari o'z dasturlari bilan ishtirok etishibdi. Shular qatori o'zimizning qo'g'irchoqlar «Assalom Navro'z» nomli sahna asarini namoyish qilibdi.

-Pokistondagi bu tomosha o'zbek tilida bo'ldimi, deb so'rarsiz? Albatta o'zbek tilida bo'lgan-da. Tomoshalarimizni ko'risharmikan, degan qo'rquv bosgan aktyorlarimiz milliy kiyimlar kiygan qo'g'irchoq ko'rinishi bilan olqishlar yog'dirishganidan xursand bo'lib ketishibdi...Va ular 2005 yilning sentabr oyida Italiyada bo'lib o'tadigan kelgusi xalqaro festivalga taklif etilishibdi.

-Rejissyor sifatida qo'g'irchoq teatrimizga bolalarning kelishidan xursand emasman dedi Maryam opangiz. Faqat teatrga bayramlarda borilmaydi-da. Har yangi dasturini borib ko'rish kerak. Yangi yil dasturi ham zo'r tayyorlandi. E.Shvarkning «Qor malikasi»ni ko'rmaganlar armonda qoladi. Armonda qolmay desangiz, teatrga keling. Sizni ochiq yuz, yaxshi niyatlar bilan kutib qolamiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

YIGIRMA TO'QQIZTA DO'ST

«Yigitning odobi-otasiga quvvat», deyishadi. Qiz bolaning odobi-chi?

Menimcha qizlarning odobi ularning sarishtaligidir. Aynan shu sarishtalik onasining halovatini



boyitadi.

Aslida qizlarga ko'plab ta'riflar berilgan. Ular misoli gul ko'chatiga o'xshashadi. Bolaligidan aqlli, odobli, hayoli va layoqatli bo'lishsa, katta bo'lganida qiynalishmaydi. Ota-onasi ham yayrab yashaydi. Ehtimol, Kamola tug'ilganida uning buvijoni:

*Chaqaloqqa choponcha,
Olib keling dadasi.
Yoqasiga ko'zmunchoq
Taqib keling dadasi.
Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin,*

-deya olam-olam orzular eshigini ochgandir...

K a m o l a Muzaffarova shahrimizdagi Mirzo Ulug'bek tumaniga qarashli 248-maktabning 1-«V» sinf o'quvchisi. Uning opasi va singlisi ham bor. Lekin bu qizaloq sinfning eng a'lochi, namunali o'quvchisidir. Ustozi Norxol opa Hamdamaliyeva Kamolaning tirishqoqligi qaniydi barcha

o'quvchilarimda ham bo'lsa: Men bu o'quvchimga ilk bor harflarni o'rgatishda, yozishda hech ham qiynalmadim, deydi. Men Kamola bilan uchrashganimda u yaqinda bo'lib o'tadigan alifbe bayramiga

tayyorlanayotgan ekan.

Bo'yniga «L» harfini osib olibdi. U sinfidagi barcha

bolalardan ko'ra ko'proq she'rlar, maqollar, hikmatli so'zlar ham yodlabdi.

- B e s h y o s h i m d a y o q o n a m n i n g v a o p a m n i n g y o r d a m i d a h a r f l a r n i t a n i d i m. O l t i y o s h i m d a e s a o ' q i s h, y o z i s h n i o ' r g a n i b o l d i m, s h u n i n g u c h u n h a m t e n g d o s h l a r i m d a n k o ' p r o q o ' q i s h g a q i z i q a m a n d a, - d e y d i u. K o ' c h a d a n e g a d i r o ' y n a s h n i



yoqirmayman. Mustaqil ertak kitoblar o'qigim keladi. Sinfidagi a'lochi o'quvchilardan Saodat, Xurshida, Umid va boshqa o'rtoqlarim bilan do'st va ahilmiz. Endi bizlarning 28 ta xarf-do'stlarimiz bor. Bu harflar bizga hayotimiz davomida doimo hamrohdir. Ana shu harflar bilan biz bilimlar dunyosiga kirib bordik. Orzuim esa ustozimdek mehribon va yoqimtoy o'qituvchi bo'lish.

O'zining shiringina fazilatlari bilan ustoz mehriiga sazovor bo'lgan Kamolaning oydin orzulariga omad yor bo'lsin.

Xurshida BOYMIRZAYEVA, o'quvchi

Buncha xomushsan, deysanmi? Nahot xafaga o'xshab ko'rinayotgan bo'lsam? Bu shunchaki qornimning ochligidan... yoki To'ng'iz bilan «ahmoq-ahmoq» o'ynayverib, charchaganimdan bo'lsa kerak. Qanaqa o'yin bu, deganing nimasi? Rostdanam hech o'ynab ko'rmaganmisan?

Hayotdan to'rt qarich orqada qolibsana-ku, xi-xi-xi.

To'g'risini aytсам, bu o'yinni o'zim ham bugun o'rgandim. Agar karamlarim bo'lmaganda, kim biladi deysan, haliyam o'rganolmay yurarmidim...

Xullas, inda yotaverib, juda zerikib ketdim. Buning ustiga, mudoq timirskilab ko'rsam, omborchamda tishga ilinadigan narsa qolmabdi. Picha tamaddi qilvolish, bahonada oyoqning chigilini ham yozvolish maqsadida chakalakka chiqdim.

Bir vaqt qarsam, ho'anavi yo'ldan eshak arava ketib boryapti. Chetanning ichi liq to'la karam. Og'zim suvlashib, jig'ildonim likillab boshladi. Odamlarda «Omading

yurishsa - ko'miringda tillo, eshagingdan mullo chiqadi», degan maqol borligini buvimdan eshitgandim. Meniyam bir omadim keldi-yu, g'ildiragi chuqurchaga tushgan arava qattiq silkingan chog'da, katta-katta

QUYONCHANING HIKOYASI

ikkita karam chetandan tashqariga uchib ketdi. Mudrab borayotgan aravakash buni sezmay qoldi.

Karamlarni ko'zdan panaroq joyga birin-ketin dumalatib kelib, eyishni qaysinisidan boshlasam ekan, deb taraddudlandim. Shunda, «Ishkamba» laqabli qorindor To'ng'iz inqillagan kuyi qarshimdan chiqib keldi.

-Ingq, ingq, karam muborak bo'lsin, Quyonpolvon!-dedi u oldimga yaqinlashib. -Qayoqdan eplashtirding bularni?

Ishkambaning menga bunaqa do'stona muomala qilganini sira ko'rmagandim. Birdan erib ketib: «Topdik-da

endi», deb suzilganimcha iljaydim.

-Judayam ajoyibsan-da, uka, karamlarga so'lagi oqib tikilarkan, meni maqtashga tushdi Ishkamba. -Bilaman sen shavvozni, men bilan «ahmoq-ahmoq» o'ynashni mo'ljalab turibsana,

ingq. Ishkamba akangni ermak qilib, bir yayramoqchisana-da, a?

Buning qanaqa o'yinligini surishtirgan edim, keksa To'ng'iz «Bilaturib meni kalaka qilyapsan», deya avvaliga sal ranjigan bo'ldi, keyin shoshmasdan tushuntira boshladi. Uning aytishicha, bu o'yinda ikkita hayvon qatnasharkan. Ulardan biri ovqatlanayotganida ikkinchisi «ahmoq kavshandi-yo, ahmoq kavshandi-yo», deb atrofida irg'ishlab aylanganicha mazaxlab turarkan.



Anvar OBIDJON

Juda qiziq o'yin, to'g'rimi? Men ko'p o'ylanib o'tirmay, o'yinga qo'shilishga rozi bo'ldim. Ishkamba karamlarni «g'irs-g'irs» qilib eyishga tushdi. Men uning tevaragida sakrab, «ahmoq kavshandi-yo, ahmoq kavshandi-yo», deb chapak ura ketdim. Shu desang, masxara qilaverib tomog'im, irg'ishlayverib oyog'im og'riy boshladi.

Ishkamba ikkala karamni chiqindi qoldirmay tushurib bo'lgach, «Ho'g'ilay, o'zingdan-o'zing namuncha shataloq otasan», deya ko'zimga o'qraydi. Men yana picha «ahmoq-ahmoq» o'ynaylik, deb iltimos qilgan edim, u «ingq-ingq, o'zing ahmoqsan», deganicha kelgan tomoniga qaytib ketdi. Ortiqcha ahmoq qilganimgan xafa bo'ldi, shekilli.

... Menga bunaqa masxaromuz iljaymagin-da, oshna. Nima, To'ng'izni boplaganimga ishonmayapsanmi?

«Biz tarbiyalayotgan yosh avlod ham ruhan, ham jismonan sog'lom, ma'naviyati yetuk, yurt kelajagi uchun mustahkam poydevor qo'radigan yoshlar bo'lib etishishi uchun ularni bolalikdan to'g'ri yo'lga solishimiz lozim. O'zim saboq berayotgan sinfimda bo'lajak Ulug'begu Bobirlarni, Uvaysiyu Zulfiyalarni ko'raman. O'quvchilarim ularning izdoshlari ekanligidan, yuragida bir olam orzular-intilishlar borligidan g'ururlanaman», deydi Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi G'afur G'ulom nomli 33-o'rta maktab o'qituvchisi Zulayxo Abdullayeva.

-O'qituvchining burchi nimalardan iborat?

-Har bir o'qituvchida o'z kasbiga sodiqlik bo'lsagina, uning o'stirgan nihollari ertaga barakali meva bera oladi. Shogirdlarimizni



fikrlash qobiliyatini shakllantirishimiz, ularga munosib tarbiya berishimiz, hayotga ruhan tayyorlashimiz barcha-barchasi bizning burchimizdir. Eng ma'suliyatli burchimiz ertangi kun ishonchi bizning elkamizda ekanligida. Ertaning bolasi bu millatimiz g'ururi, sha'ni va davomchisidir. Uning ildizi kuchli bilim va asl tarbiyada.

ASL TARBIYA - MUSTAHKAM ILDIZ

Ta'lim maskanimizda 900 ga yaqin o'quvchi tahsil oladi. Ularga 80 ga yaqin malakali o'qituvchilar tarbiya berishadi. Hamkasblarimning ko'pchiligi o'z kasbining bilimdonlaridan. Ish jarayonimda keksa o'qituvchilarimizning tajribasiga tayanaman. O'quvchilarim bilan ko'proq hamsuhbat bo'lishga intilaman. Ayrim bolalarda og'zaki nutq, boshqalarida yozma nutq kuchli. «Qor uyumi», «Ochiq likopcha», «Fikrlar o'yg'unligi» kabi o'yin usulidagi darslarimizga o'quvchilar juda qiziqishadi.

Nazarimda ustoz bilan shogird munosabati shunday bir sof tuyg'uki, muallimning ko'z qarashidan o'quvchining diliga iliqlik yugursa. Ba'zan biz ko'p narsani o'z qarishimiz bilan o'lchashga o'rinamiz, bu

noto'g'ri, albatta. Ustoz shogird qarashini ham esdan chiqarmasligi lozim.

-Agar direktor bo'lib qolsangiz nimalar qilardingiz?

-Yosh kadrlarni ko'proq malakasini oshirishga yo'naltirardim. Yangilarini esa eski o'qituvchilarga birlashtirib, ulardan tajriba o'rganishini

ta'minlar edim. Hozir zamonaviy texnika kuchaygan payt. Disketlarda dars qo'llanmalari ko'p ekan. Ulardan o'qitishga jarayonida muntazam foydalanardim.

-Badiiy ijod bilan ham



shug'ullanarkansiz?

-Ha, she'rlar yozib turaman. Yozganlarim tez-tez chop etilmasada, ularni o'qiganimga ko'nglim shodlanadi. Yana bir xursandchiligim, farzandim

Husnibonu menga nisbatan ildamroq ekan. Tinib-tinchimaydi, doimo ijod bilan mashg'ul. O'zining yozgan she'rlarini Shahrisabzda «Orzu» nomi bilan to'plam qilib oldi. Orzularimning ibtidosini qizimning kamolida ko'rish ona sifatida menga huzur bag'ishlaydi.


-Yangi yil tilaklaringiz?

-Bugun diyorumizning har jabhasida bo'layotgan o'zgarishlardan, mustaqillikning ne'matlaridan ko'nglingiz tog'dek ko'tariladi. Bu dorilamon kunlarning qadri ertangi avlodga butun bo'y-basti bilan gavda tutmoqda. Yurtimizda mehnat qilayotgan barcha hamkasblarimni, shogirdlarimni, «Tong yulduzi» mushtariylarini Yangi yil bayrami bilan tabriklayman. Barchangizni «Sihat-salomatlik yilida» ta'ni-sihatlik aslo tark etmasin.

Zulayxo bilan bo'lgan suhbatimizni tinglayotgan

Husnibonu ham o'z tengdoshlarini bayram bilan qutlab, gazetamiz orqali ularga she'riy tabrik yo'llamoqchi bo'ldilar.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.



MEHMON NAVOZBEK

Ko'chada o'ynab yurgan, Edi Shodmonjon. Shunda uyga kirib, Keldi bir mehmon.

Dasturxonaga keltirishdi, Navvot qand. Patir, nonlar qo'yishdi, Qavat-qavat.

Choy damlashdi ko'ko', Qoradan issiq. Gurung boshlashdi so'ngra,

Qiziqdan-qiziq. Shodmonjon suykalmasdan, Chiqdi dalaga.

Chunki u aylangandi, Esti bolaga.

Husnibonu SHAROPOVA, 5-«A» sinf o'quvchisi.

1. BIZ BOLALAR VA DOMLALAR

Mash'um urushdan keyingi tinch hayotning yettinchi yiliga qadam qo'yilgan bo'lsa-da, hali uning asoratlari har jabhada ko'zga tashlanib turar, biz o'qiydigan maktab hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagandi.

Ayniqsa, sinfimiz aralash-quralashligi bilan boshqa sinflardan mutlaq farq qilardi. Bu degani, ovozi do'rillab, mo'ylovi sabza urib qolgan o'smir yigitlardan tortib, katta opalarimiz qatori qizlar ham biz bilan birga o'qishar, bo'ybastlariga qarab, orqaroq partalarda o'tirishardi.

Ayniqsa, «akaxon»larning bilim olishga uncha ishtiyoqlari yo'q, bor o'quv qurollari — ikki buklab, qo'ltiqqa qistirib yuradigan daftaru, uning orasidagi peroli ruchkadan iborat bo'lardi. Ancha talabchan sinf rahbarimiz ning yuzidan o'tolmay, juda yozgilar kelib qolsa, biz «tirmizaklar»ning siyohdonini indamay olib qo'yib foydalanishardi.

Lekin «katta»larning savlati bosibmi, sinf rahbarimiz intizomni qattiq tutishidanmi, hammamiz namunali o'quvchi hisoblanardik. Uncha-muncha to'polon

aksar biz turranchalardan chiqar, shunda «akaxon»lar darrov gironimizdan olib yoki charsilatib peshonamizga chertib, tartibga chaqirib qo'yishardi.

Sirasini aytganda, sinfimiz har jihatdan boshqacharoq, maktabda biron shonli sana munosabati bilan saf tortiladigan bo'lsa, pastu baland turishimizning o'zi g'aroyib edi.

Qaydlov daftarida ismi-sharifi yozilgan o'ttiz o'smir yigit-qiz, bola-baqralardan iborat jamoamizning bilim darajasi ham shunga yarasha — kimdadir biroz yuqori, kimdadir o'rta miyona, yana birovdan o'ta past edi. Rus tili o'qituvchimiz aytganidek, «ko'zing qani desa, burnini ko'rsatadiganlar» ham yo'q emasdi.

Xullas, popugi do'ppisiga mos deganlariday bizga saboq beradigan muallimlarning ham fe'l-atvori turli-tuman edi: bantartarbiya o'qituvchimiz ozg'indan kelgan, qiltiriq, shu bilan bo'yi nihoyatda uzun — ikki gazdan yuqori odam edi. Sinf rahbarimiz uni uzundan-uzoq qilib «Anatoliy Maksimov Illarionovich» deb tanishtirgan bo'lsa-da, biz o'zimizga moslab «domla Mahsumov» deb atay boshladik. Umuman maktabda hamma uni shunday deb chaqirardi.

«Mahsumov» uzoqdan kishi ko'ziga to'y-tomoshalarda surnaychilar qurshovida paydo

bo'lib qoladigan «yog'ochoyoq»ning o'zginasi bo'lib ko'rindi. Shu odam bizlarga birinchi dars o'tish uchun kirayotib, peshonasini sinfimiz eshigining yuqori kesakisiga urib olgan, o'rischalab nimalardir deb so'kingandi. Shundan beri har gal darsga ikki bukilib kirib keladigan bo'lgan.

«Mahsumov» odatdagiday bizlarni turg'izib, salom-alik qilib o'tirmasdi. Ancha tili kelishmasa-da, familiyalarimizni birma-bir o'qib, hamma sinfdaligiga ishonch hosil qilgach, daroz qomatini tik tutib «raz-dva, raz-dva» deb mashq boshlar, o'ngu so'lga o'girilib har qaddini bukkanda, ayniqsa oyoqlarini azot ko'targanda suyaklari shaqillab bir-biriga urilganday xunuk ovoz chiqarar, ana o'shanda «Biologiya kabineti» deb ataluvchi xona burchagida turadigan, ba'zan bizlar qiya ochiq eshikdan qo'rqapisa qarab qo'yadigan odam skeleti (uni shahar tashqarisidagi «Avliyo buva» qabristonidan keltirishgan deyishardi) tushimizda emas, ko'z o'ngimizda namoyon bo'layotganday tuyulardi... «Mahsumov»dan baho olish ming azob edi: ro'yxat bo'yicha bittadan bolani doska oldiga chiqarib qo'yib, o'zi ko'rsatgan mashqlarni qaytarib ko'rsatishni talab qilar, «raz-dva»siga monand xatti-harakatni bajarguncha ona sutimiz

Hurmatli bolalar!

Bir necha hikoya, qissa, roman hamda publisistik kitoblar muallifi Dadaxon Nuriy adabiyotga gazetamizning yosh muxbiri sifatida kirib kelgan. Uning birinchi «Aqlli pero» hikoyasi bundan rosa 50 yil muqaddam - 1954 yili «Tong yulduzi» (o'sha paylar «Lenin uchquni» deb atalgan) sahifalarida bosilib chiqqan.

Adib yaqinda «Oybekni ko'rgan va ko'rmaganlar» nomli romanini yozib tugatdi. Asar «Jahon adabiyoti» hamda «Sharq» nashriyot-matbaa kompaniyasida bosilmoqda. Yozuvchimizning yangi kitobidan ayrim boblarni e'tiboringizga havola etamiz.



og'zimizdan kelardi.

Matematikadan ovozi otinoyilarnikiqday shikasta, yuzi sepkilli, miqtidan kelgan Ma'mur abziy degan yigit dars berardi. Uning ham boshqalarnikidan o'zgacharoq odati bor edi: oppoq, ingichka, uzuk taqqan barmoqlari bilan sinf jurnalini ko'kragiga mahkam bosganicha «Va'aleykum-va'aleykum»lab kirib kelar, kursiga orqasi tegib ulgurmay o'tgan safar qaysi masala echimi qayerda to'xtab qolgan bo'lsa, o'sha erdan davom ettirib ketaverar, barchamiz uning xotirasiga qoyil qolardik.


Tarix o'qituvchimizning tillari chuchukroq edi. Ayniqsa, «s» harfini aytolmasdi. Lekin ovozdan xudo bergandi — «Dushman Metopatamiyaga

bottirib kirdi» deganida, deraza oynalari zirillab ketardi.

Adabiyot muallimimiz Salmonjon domlani-ku qo'yavering, u kishi nuqul she'r yodlatardi. Eng ko'p she'r bilganlarga qatorlashtirib «besh» qo'yib tashlayverardi. Kichkinagina, chayir Nishonboy do'stimiz Oybekning «Temirchi Jo'ra» dostonini yod aytib, bir kunning o'zida ikkita a'lo baho olgan va domlaning «sendan shoir chiqadi» degan tahsiniga sazovor bo'lgan... Eng qizig'i, bu muallimimiz bizlarga she'r aytirib qo'yib, ko'zlarini yumib olganча tinglab, huzur qilyaptimi, mizg'ib olayaptimi bilib bo'lmasdi.

(Davomi bor.)

RAZZOQ IBROHIM



Asli kasbi o'qituvchi bo'lgan Razzoq Ibrahim tuman gazetasida mas'ul kotib, tuman partiya qo'mitasida yo'riqchi, bo'lim mudiri o'rinbosari va mudir, so'ngra tuman gazetasida muharrir vazifalarida ham ishlagan. U yana maktabga qaytdi va o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i haqida shunday deydi:

-Bolaligimga zavqu - shavq bag'ishlagan, qalbimga ehtirosli damlarni, unutilmas voqea-xotiralarni muhrlagan Xazorasp tumanidagi Bo'ston qishlog'im «Polvon» kanalining so'l qirg'og'i bo'ylab Amudaryogacha tutashib ketadi. 50-yillar turmush tarzi, qishloq xo'jalik sohasidagi siyosat, og'ir va fidokorona mehnat, qishloq odamlarining hayotida ro'y bergan noxushliklar hali-hanuz menga tinchlik bermaydi. Yoshlikdagi ko'rgan-kechirganlarimni bir sidra qaytadan idrok qilib, «Niholda ham bor xayol» dostonini yozdim. Hurmatli bolajonlarim, ushbu dostonimdan ayrim boblarini Sizga havola qilar ekanman, o'tmish va bugunga baho berishda adashmaysizlar, deb umid qilaman.

NIHOLDA HAM BOR XAYOL

Bolalik bu - murg'ak tan,
Foz o'suvchan bo'lishar.
Yangi tuqqan oy kabi,
Kundan-kunga to'lishar.

Qirg'oqni cho'lp-cho'lp o'pgan,
Jo'shqin soyma o'xshaydi.
Finmayin, tinchimayin,
Qulun, toyma o'xshaydi.

Bir jon - bir tan, jamuljam,
To'p-to'p bo'lib o'ynashar.
Yeru ko'kni to'ldirib,
Qiyqirishib qunashar.

Bolalik - bahor yeli,
Yeldak har yon chopishar.
Har qadamda yangilik,
Mo'juzalar topishar.

Bolalik - bu maysadir,
Ko'ngillarni yayratib.
G'uncha kabi ochilar,
Muattar bo'y taratib.

Men so'zlayin beg'ubor
Bolaligim haqida.
Chamanzorda bitgan gul,
Lolaligim haqida.

Men so'zlayin ba'zan go'l,
Soddaligim haqida.
Gapga uchgan, egilgan
Navdaligim haqida.

Istihola, andisha
Menga tug'ma berilgan.
Uyatchanlik, iymonish -
Bari birga berilgan.

Kattalarning yonida
Ezaverdim o'zimni.
Duduqlanib qolganday
Sezaverdim o'zimni.

Neki gapim, dardim bor,
Duragimga soldim men.
Indamastik yo'lini,
Mahkam tutib oldim men.

Katta bo'lgach, bu qiliq
Odatimga aylandi.
So'zlash o'rni kelganda,
Hayhot, tilim boylandi.

Ko'p qiynalдим hayotda
O'zligimni bildirmay.
Samimiy hamda to'g'ri,
So'zligimni bildirmay.

Kamgapliligim sababmi,
Hozir ham dil zil ketar.
So'zamollik, chechanlik
Havasimni keltirar...
(Davomi bor.)



QORBONING QORQIZI

Bor ekanda, yo'q ekan. Qadim zamonda qalbi qordek oq, qo'li ham, ko'ngli ham ochiq bir Qorbobo bo'lgan ekan. Yangi yil arafasida u bolajonlarga sovg'alar ulashar, hammaning ko'nglini olishga harakat qilarkan.

Bir yili u kattakon qopini sovg'a-salomga to'ldirib, Yangi yil bayramiga oshiqib ketayotgan ekan. Qorda oyog'i sirpanib ketib, qo'lidan qopi uchib ketibdi va ichidagi o'yinchoqlar har tarafga sochilib ketibdi. «Endi nima qildim-a, Yangi yilning boshlanishiga ham sanoqli daqiqalar qoldi,- o'yilabdi Qorbobo.-Qaniydi bir yordamchim bo'lsa-yu, menga ko'maklashib yuborsa...»

Shu payt bir chekkada sovuqdan qo'llari qaltirab, pista va qurt sotib o'tirgan



Iroda MUSURMONOVA,

Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi

Amir Temur nomli 8 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

qizaloq unga yordamga oshiqibdi. O'yinchoqlarini yig'ib, tezda qopiga joylab beribdi. Qorga belangan kiyimlarini ham qoqib qo'yibdi.. Qorboboning bu qizchaga mehri tushib qolibdi. So'rab surishtirsa, u yetim qiz bo'lib, zolim va johil xolasining qo'lida yasharkan. Xolasi uni mayda-chuyda narsalar sotishga majbur qilarkan. Pullarini esa tiyinigacha qoldirmay tortib olarkan. Qorbobo unga o'ziga qiz bo'lishni taklif qilgan ekan, qizcha bajonidil rozi bo'libdi. Shu kuni ular sovg'alarni birgalikda ulashishibdi. Sovg'a-salom olgan bolajonlarning sevinchi ichiga sig'masmish. Ammo sovg'aning eng kattasini olgan Qorboboning shodligi ularnikidan ham cheksiz ekan. Axir endi uning QORQIZI bor-da.

QISH ZIYNASI

Laylak qorlar yog'adi,
Sokin sukunat bilan.
Oppoq bo'lib qoladi,
To'shalganda par gilam.



Sovuq qolgandek go'yo,
Fog'lar kiyar qalpog'in.
Daraxtdagi shoxlar ham,
Qo'msaydi o'z yaprog'in.
O'tkir QO'CHQOROV,
Toshkentdagi
316 - maktabning 7 -«G» sinf
o'quvchisi.

OPPOQ QOR

Dalalarda hukmron,
Qish emas, oppoq bahor.
Shoshilmogda bolalar,
Oppoq qor, deb, oppoq qor!
Chana-chang'i uchishar,
Qorodam ham bunda bor.
Zavqlanishar bolalar:
«Oppoq qor, deb, - oppoq qor»

Gulruh AMIROVA,

Samarqand viloyati, Ishitihon shahridagi
8 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

Krossvordning savollari:


Boyiga: 1.Qit'a. 5.Ko'l. 7.Sovuq mintaq. 10.Osmon jismi. 11.Tog'. 13.Orol. 14.Davlat. 18.Yog'in turi. 20.Daryo. 21.Okean nomi. 22.Dunyo tomoni.

Eniga: 2.Millat. 3.Davlat. 4.Qit'a. 6.Davlat. 8.Elim. 9.Sahro. 12.Dunyo tomoni. 15.Dengiz. 16.Eng uzun daryo. 17.Afrikadagi daryo. 19.Davlat.



Tuzuvchi: D.QO'SHJONOVA,

Qoraqalpog'iston respublikasi, Qo'ng'iroq tumani.



TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 45441

Buyurtma N: J 868

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek

ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ma'mura

MADRAHIMOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45